



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yanvar-iyun 2019 yil

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 10 355,5 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 208,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 6 364,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 martaga oshdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa, asosiy kapitalga investitsiyalarning 38,5 % ni yoki 3 990,9 mlrd. soʻm oʻzlashtirildi.







O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag'i 1712,6 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,5 % ni, Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,8 % ni yoki 703,9 mlrd.so'm o'zlashtirildi. Shuningdek, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta ulushini O'z.R kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlar 57,3 % ni tashkil qilmoqda.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlari mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga 5 934,6 mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 201,5 marta oshdi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lib, "UZBEKISTAN GTL" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'ini ajratib olish uchun mo'ljallangan uskunalari keltirilmoqda. Respublika yo'l jamg'armasi tomonidan Ko'kdala-Chim-G'uzor liniyalarida qurilish ishlari olib borilmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,7 % i yoki 386,1 mlrd. so'm Respublika byudjeti mablag'lariga to'g'ri kelmoqda.





Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 16,5 % i yoki 1 712,6 mlrd. so'm korxonalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu yirik korxonalar tomonidan hisobot davrida Sho'rtan qo'rg'onidagi № 319 quduqlarni burg'ulash obyektlari ishga tushirilganligi bilan izohlanadi. Aholi mablag'lari hisobidan 703,9 mlrd. so'm yoki 6,8 % ini, tijorat bank kreditlari tomonidan jami investitsiyalarning 3,7 % i yoki 384,7 mlrd. so'm, Xorijiy investitsiyalar tomonidan esa asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,4 % yoki 1 177,6 mlrd. so'm investitsiyalar jalb qilindi.



Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-iyun oylarida)

	mlrd.so`m	o`shish sur`ati foizda	Yakunga nisbatan foizda
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	10355,5	208,5	100
Markazlashgan investitsiyalar:	6364,6	590,5	61,5
➤ Byudjet mablag`idan	429,3	489,1	6,7
➤ Davlat maqsadli fond mablag`lari	-	-	-
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari	-	-	-
➤ Bolalar sportini rivojlantirish	-	-	-
➤ Xukumat kafolati ostida chet el kreditlari	5934,6	20,1 m	93,2
➤ Toza ichimlik suvi fondi	0,7	28,2	0,1
Markazlashmagan investitsiyalar:	3990,9	105,7	38,5
➤ Korxonalarining o`z mablag`lari	1712,6	86,2	42,9
➤ Aholi mablag`lari	703,9	96,6	17,6
➤ to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1177,7	215,5	29,5
➤ tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	396,7	77,9	10,0

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 38,5 % ni yoki 3990,9 mlrd. so`mni tashkil etdi.


O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag`i 1712,6 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 42,9 % i o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xududlar kesimida

(2019 yil yanvar-iyun oylarida)

	Jami		Shu jumladan qurilish-montaj ishlari	
	mlrd.so`m	o`shish sura`ti foizda	mlrd.so`m	Jamiga nisbatan ulushi foizda
➤ Viloyat bo`yicha:	10355,5	208,5	3982,7	38,5
shaharlar:				
➤ Qarshi	1095,8	124,4	530,1	48,4
➤ Shahrisabz	66,9	106,7	38,5	57,6
tumanlar:				
➤ G`uzor	634,0	156,8	418,4	66,0
➤ Dehqonobod	536,6	95,3	422,8	78,8
➤ Qamashi	105,4	193,9	54,8	52,0
➤ Qarshi	485,4	287,6	120,7	24,9
➤ Koson	116,0	120,2	48,0	41,4
➤ Kitob	193,4	133,3	100,9	52,2
➤ Mirishkor	65,5	148,0	33,2	50,7
➤ Muborak	570,0	51,7	332,0	58,3
➤ Nishon	6011,1	598,2	1658,3	27,6
➤ Kasbi	161,2	270,1	47,5	29,5
➤ Chiroqchi	110,4	87,9	79,9	72,4
➤ Shahrisabz	80,8	66,8	48,2	59,7
➤ Yakkabog`	123,0	91,9	49,4	40,2

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish sur`atlari hududlar kesimida



○ 2019 yil yanvar-iyun




Hududlar kesimida Nishon va Qarshi tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning Nishon tumanida 58,1 % i, Qarshi tumanida esa 4,7 % i o'zlashtirildi.

Qarshi shahrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 10,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Mirishkor tumanida esa, bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi ya'ni – 0,6 %.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (viloyatdagi ulushi)



- G'uzor ● Dehqonobod ● Qamashi ● Qarshi t ● Koson ● Kitob ● Mirishkor
- Muborak ● Nishon ● Kasbi ● Chiroqchi ● Shahrisabz t ● Yakkabog'
- Qarshi sh ● Shahrisabz sh




Hududlar kesimida Nishon tumani va Qarshi shahrining jami asosiy kapitalidagi ulushi eng yuqori bo'lmoqda. Bunga sabab, yirik xorijiy korxonalar tomonidan investitsiyalar ko'proq jalb qilinmoqda.

Qarshi va G'uzor tumanlarida investitsion faollik natijasida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda. Bu tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan "Pishiqlik g'isht" va "Ip-kalava" ishlab chiqaradigan zavod qurilmoqda.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	Jami	Shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd.so`m	10355,5	509,6	9845,9
➤ qurilish-montaj ishlari	3982,7	442,4	3540,3
➤ mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo`jalik jixozlari	5136,0	48,6	5087,4
➤ boshqa xarajatlar	1236,8	18,6	1218,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (mlrd.so`m)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(umumiy xajmga nisbatan foiz xisobida)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida elektr energiyasi, gaz va bug' tarmog'i yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5967,6 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 57,6 % i o`zlashtirilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi


Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng katta qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan bo`lib, yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 8 503,1 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 82,1 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 855,6 mlrd.so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 8,3 % ini tashkil etdi. Qolgan 9,6 %, yani 996,8 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


Joriy davrda 7 112,3 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 68,7 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.



Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1 055,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 6 057,2 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi. To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 1 011,3 mlrd. so`m

o`zlashtirilgan bo`lib, jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 9,8 % ni tashkil qildi.

Obyektlarni ishga tushirish *kv.m*



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 519,5 ming kv.m, bo`lgan 3138 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 317,9 ming kv.m. bo`lgan 2024 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 49,3 ming kv.m. 464 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Kitob tumanida ishga tushirilgan 84,5 ming kv.m. va u viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 16,3 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Muborak tumanida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 1,5 % ni tshkil etdi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun ma'sul:

A.Isaev

aloqa telefoni:

75-221-32-47